



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqqan boshlagan

№13 (775), 2024-yil 17-iyul

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



Dolzarb mavzu

YANGI ZAMON MUHANDISLARI — ILM-FAN VA ISHLAB CHIQRISH DRAYVERI

Tarixdan ma'lumki, qaysi davlatda ta'limga katta e'tibor qaratilib, ilm-fan bilan shug'ullanadiganlar uchun shart-sharoitlar yaratilib, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, albatta, bu yurtida olamshumul ilmiy kashfiyotlar qilinadi. Natijada mamlakat yuksak taraqqiyotga erishadi, xalq farovon yashaydi, yurt obod bo'ladi.

Ajdodlarimiz buni yaxshi bilganlar va ilm-fan ma'rifatni doimo ulug'laganlar. IX-XII asrlarda yuzaga kelgan Birinchi Uyg'onish va XIV-XV asrlardagi Ikkinchi Uyg'onish davri zamirida Markaziy Osiyo, jumladan, yurtimizdan chiqqan buyuk allomalarining ilm-fan, bilim va ma'rifat sohasidagi yirik kashfiyotlari yotadi. Bu davrda ulug' allomalar ko'plab fanlarga asos solib va ularni ilmiy tomondan boyitdilar.

Ayniqsa, mineralogiya va metallurgiya sohasida Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya" asari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Buyuk vatandoshimiz tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar, kashfiyotlar dunyo miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga katta hissa qo'shdi. Ilm-fan rivoj topgan va ulug' allomalar yurti bo'lgan O'zbekistonda bundan keyin ham bu kabi olamshumul kashfiyotlar yaratilishi, ilm-fanimiz barqaror taraqqiy etishga mustahkam poydevor va ma'naviy asos bor.

Raqobat kuchayib borayotgan bugungi zamonada mamlakat taraqqiyotini ilm-fan yutuqlariga hamda ularni ishlab chiqarishga muvaffaqiyatli tatbiq etmasdan turib, har qanday soha rivoj va kelajagini topishini tasavvur qilish qiyin. Negaki, XXI asrda jahon ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanishning yangi



bosqichiga o'tmoqda. Bu haqiqatni anglagan dunyo mamlakatlari asosiy e'tiborini ilm-fanni rivojlantirishga va u orqali ishlab chiqarish sohasini, jumladan, sanoatni yuksaltirishga qaratmoqda. Bu sohaga katta mablag' va boshqa resurslarni jalb etmoqda.

Ayniqsa, keyingi yillarda barcha sohalarda innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Natijada dunyoda barcha tarmoqlarda keskin raqobat yuz bermoqda. Bu raqobat o'z navbatida bizning, ya'ni, kon-metallurgiya sanoati korxonalarini jamoalari oldiga ham katta vazifalarni qo'yimoqda. Mazkur jarayonda biz ilm bilan shug'ullanadigan va ishlab chiqarish jarayonlari uchun yangi zamon muhandislarini tayyorlashimiz o'ta muhimdir.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi texnologiyalar va innovatsiyalarning jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakatimiz bu boradagi marralarning zabt etilishida bizga "to'rtinchi sano-

at inqilobi" kasblari juda muhimdir. Mazkur yo'nalishda - ilm-fan va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor, zamonaviy muhandislik texnologiyalariga doir bilimlarni puxta egallagan, yuqori malakali muhandislar tayyorlash o'ta dolzarbdur.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqarish korxonalarini uchun zamonaviy muhandis kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, joriy yilning 20-iyunida Prezidentimiz raisligida muhandislik sohasidagi kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishda kelgusida bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berildi. Yig'ilishda texnika yo'nalishdagi muammolarga ham e'tibor qaratib, bu borada ham yechimini kutayotgan muammolar borligi, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish kerakligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, nazariy bilim bilan

bir qatorda, amaliyotni uyg'un holda olib borish, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish zanjirining integratsiyasini ta'minlashga katta e'tibor qaratish kerak. Bu integratsiya o'z navbatida oliyog'oh talabalarining bilim olib, amaliyotda uni mustahkamlab, korxonaga malakali mutaxassis sifatida shakllanib borishida muhim o'rin tutadi.

Keyingi yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida yirik investitsion loyihalarning amalga oshirilishi natijasida 4 ta yangi gidrometallurgiya zavodi, ya'ni, 5, 6 va 7-gidrometallurgiya zavodlari va 2-gidrometallurgiya zavodining 2-navbati bevosita ishga tushirildi. Shu bilan birga, zavodlarimizni xomashyo bilan ta'minlash maqsadida, "Muruntov" konining V navbati, "Balpantov", "Tomdibuloq", "Turbay" konlari o'zlashtirildi. Buning hisobiga 2024-yilda 2016-yilga nisbatan oltin ishlab chiqarish 32 foiz, kumush ishlab chiqarish 46 foizga oshadi.

Davomi 2-betda

Sarhisob

Joriy yilning 4-iyul kuni "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati boshqarmasi majlislar zalida kombinatda 2022-2024-yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasi majburiyatlarining 2023-yilda bajarilishiga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi. Unda "NKMK" AJ Ma'muriy masalalar bo'yicha direktor N.Jo'libekov hamda kasaba uyushmasi Kengashi raisi I.Rahmatovlarning kombinatda amaldagi Jamoa shartnomasi majburiyatlarining 2023-yilda bajarilishi yuzasidan hisobotlari tinglandi.



KUN TARTIBIDA — JAMOA SHARTNOMASI BAJARILISHI

N.Jo'libekov ma'ruzasida ta'kidlanganidek, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ko'pincha kishilik jamoa hayotida yaqqol iz qoldirdi. Dunyoda keskin raqobat ketayotgan hozirgi davrda ishlab chiqarish sur'atini oshirish eng qiyin, eng murakkab jarayon. Lekin kombinat jamoasi bu sinovlarni yengib o'tib, jahonda o'z mavqegini mustahkamlab, ulkan korxonada kon-metallurgiya sanoatida yildan-yilga shiddat bilan ilgari- lab boryapti. Buning hammasi aniq rejalar asosida yangi quvvatlarni ishga tushirish, xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish sur'atini oshirish, tinimsiz mehnat, olim va mutaxassislar izlanishi, intilishlari ortidan bo'lmoqda.

Kombinatimizning keskin yuksalishiga bosh omil, bu — davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlab berilgan 2017-2026-yillarda kombinatni strategik rivojlantirish dasturi bo'ldi. Bu dastur asosida qiymati 2,9 milliard dollar bo'lgan 23 ta yirik loyiha ishga tushirildi. Ke-

yingi yillarda yangi gidrometallurgiya zavodlari va 2-gidrometallurgiya zavodi ikkinchi navbati, yangi konlar, sexlar ishga tushirildi. Ularni ishga tushirish hisobiga salkam 40 million tonna ma'danni qayta ishlab chiqarish qo'shimcha quvvat, 15 mingta yangi ish o'rni yaratildi.

Bu kabi natijalar 2016-yilga nisbatan kombinatda tog' jinslarini qazib olish hajmini 2,5 barobarga, ma'danni qayta ishlashni 1,6 barobarga, oltin ishlab chiqarish hajmini 26 foizga, kumushni esa 47 foizga oshirish imkonini berdi. Kombinatlarning oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalari orasida 2016-yildagi 7-o'rindan 2023-yilda 4-o'ringa chiqdi. Natijada kombinat ma'danni qazib olishdan tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga olgan haqiqiy sanoat klasteriga, dunyo korxonalarini bilan bemaol raqobatlasha oladigan zamonaviy kompaniyaga aylandi.

Davomi 2-betda

Xushxabar

XALQARO KAPITAL BOZORIGA YO'L OCHILMOQDA

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tomonidan mineral-resurs bazasini rivojlantirish, konchilik va qayta ishlash quvvatlarini oshirishga xalqaro investorlarni keng jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu kabi tizimli ishlar kompaniyaning raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qilyapti.

Ushbu ishlar doirasida 2024-yilning fevral oyida "Fitch Ratings" va "S&P Global Ratings" xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlik o'rnatilgan edi.

Joriy yilning iyul oyida mazkur reyting agentliklari tomonidan "NKMK" AJ tarixida ilk marotaba kombinatga O'zbekiston Respublikasining suveren reytingiga muvofiq "Barqaror" prognozi bilan "BB-" darajasidagi kredit reytinglari berildi. Shu bilan birga, "S&P Global Ratings" xalqaro reyting agentligi bir vaqtning o'zida kombinatning kreditga layoqatlilik xususiyatlarini (SACP) "bb+" da-

rajasida baholadi, bu O'zbekiston Respublikasi korxonalarini tarixida muhim voqea bo'ldi.

Kombinat rahbariyati va yetakchi mutaxassislarining reyting agentliklari vakillari bilan hamkorlikdagi keng ko'lami ishlar ushbu muvaffaqiyatga erishish uchun xizmat qildi. Kredit reytingining berilishi kombinat uchun yangi imkoniyatlarni ochadi hamda xalqaro kapital bozorlariga chiqish va qulay shartlarda investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashadi.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.

Yangilik

YANGI MODELDAGI SHOVQINNI ANIQLOVCHI QURILMA ISHLAB CHIQRILDI

Bugun kombinatda import o'rnini bosuvchi mahalliyashtirilgan yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmogda. Jumladan, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasining Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika markaziy laboratoriyasida yangi rusumdagi "SHUM-4" — tovush bosimi darajasini o'lchash qurilmasini ishlab chiqarish boshlandi. Ushbu loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshirildi.

Qurilma ma'danni maydalash tegirmonlaridagi tovush bosimi darajasini o'lchash orqali uning ma'dan-suv bilan yuklanganligi sathini aniqlaydi. Tegirmonlardagi tovush bosimi darajasining raqamli signal ko'rinishidagi ma'lumotlar maxsus dastur orqali avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga uzatiladi hamda tegirmonning optimal yuklanishi ta'minlanadi. Bu, ma'danni maydalash texnologik jarayonining me'yorida ishlashiga olib keladi.

Takomillashtirilgan "SHUM-4" qurilmasi to'liq mahalliyashtirilgan bo'lib, avval qo'llanilgan "SHUM-1" qurilmasidan farqi, uning raqamlashtirilganligi hamda aniqlik va ishonchlilik ko'rsatkichlarining yuqoriligidadir. Shuningdek, qurilma ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlariga integrallashtirildi.

"SHUM-4" o'lchov qurilmalari kombinatning barcha gidrometallurgiya zavodlaridagi ma'dan maydalash tegirmonlariga o'rnatilgan bo'lib, ishlab chiqarish texnologik jarayonining bir maromda ishlashini ta'minlayapti.

Ikrom G'ANIYEV.



Respublika xabarlari

O'ZBEKISTON XALQARO MOLIYA BOZORIGA CHIQQOQDA

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki raisi Alisher Mirsoatov boshchiligidagi delegatsiyaning Buyuk Britaniyaga tashrifi doirasida London fond birjasiga 411 million dollarlik xalqaro obligatsiya joylashtirildi.

Erishilgan moliyaviy kelishuvda "Deloitte", "Ernst & Young", "Dentons" va "Linklaters" kabi yetakchi auditor va yuridik kompaniyalar ishtirok etdi. Uchrashuvda yirik jahon moliya institutlari - "JP Morgan", "Citibank", "Deutsche Bank", "NATIXIS", "Societe Generale" va "Standard Chartered Bank" kompaniyalari vakillari bilan ham muzokara o'tkazildi.

Obligatsiyani joylashtirishdan tushgan mablag' muhim infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltiriladi. Ekspertlar fikricha, xalqaro obligatsiyani milliy valutada chiqarish bo'yicha O'zbekistonning bu tajribasi mamlakatdagi boshqa kompaniyalar uchun namuna bo'lishi, o'sish uchun yangi moliyaviy imkoniyat ochishi mumkin.

"YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHDA MILLIY SHAFFOFLIK TIZIMI JORIY ETILADI

Joriy yilning 5-iyunida "O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi.

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralarini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengashga ishiqxonaga gazlarining xatlovi bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklandi.

Ishiqxonaga gazlari xatlovi hisobotini tasdiqlash, xatlov tizimining ichki qoidalarini tasdiqlash va yangilab borish, ishiqxonaga gazlari ajratmalarini kamaytirish faoliyatini muvofiqlashtirish, xatlov tizimi ishtirokchilarining salohiyatini oshirish choralarini ko'rish vazifalari yuklandi.

2024-yil 1-dekabr gacha milliy shaffoflik tizimi onlayn platformasi ishga tushirilishi va uning "Yashil" iqtisodiyot onlayn platformasiga integratsiya qilinishi ta'minlanadi.

2025-yil 1-yanvargacha tajriba-sinov tariqasida muayyan soha, hudud va korxonalarda ishiqxonaga gazlari ajratmalarini xatlovdan o'tkazilishi ta'minlanadi.

Bunda onlayn platformaning faoliyati Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Yashil" iqtisodiyot loyihalari markazi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

O'za materiallari asosida tayyorlandi.



YANGI ZAMON MUHANDISLARI — ILM-FAN VA ISHLAB CHIQAIRISH DRAYVERI

◀ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Bunda, hech shubhasiz, malakali kadrlarning xizmatlari beqiyos. Bizning oldimizda esa yangi marralar turibdi. Bu marralarni zabt etish, yangi zamon muhandislarini tayyorlab berishda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti jamoasi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Kon-metallurgiya sanoati va boshqa korxonalar uchun yuqori malakali, chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali muhandis kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi qarori bilan Navoiy davlat konchilik instituti Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti sifatida qayta tashkil etilishi muhim qadam bo'ldi. Qarorda universitet jamoasi oldiga katta vazifalar qo'yildi.

Keyingi yillarda kombinat bilan oliyogoh o'rtasida ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash yo'lida qator ishlar amalga oshirildi. Natijada bu sohada ko'plab amaliy natijalarga erishdik. Eng muhimi, kombinat ishlab chiqarish bo'linmalarida universitetning konchilik ishi, metallurgiya, mashinasozlik texnologiyasi, konchilik elektromexanikasi, avtomatlashtirish va boshqaruv, elektr energetikasi mutaxassislik kafedralari filiallari va Navoiy mashinasozlik zavodida Texnopark tashkil etildi. Mazkur kafedra filiallari va texnoparkda talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash maqsadida, amaliy mashg'ulotlar ishlab chiqarish korxonalarining tajribali mutaxassislaridan olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda, universitet o'quv va ilmiy-tad-

qiqot jarayonlariga kombinatda faoliyat olib borayotgan 8 nafar fan doktori va 24 nafar fan nomzodi jalb etilib, ular nazariy bilimlar berish bilan birga, talaba va ilmiy tadqiqotchilarga ilmiy rahbar sifatida birlashtirildi. Bu amalga oshirilgan ishlar ham o'z samarasini beryapti. Oliyogohni tugatib, kombinatga ishga kelayotgan yoshlar o'z sohasi bo'yicha nazariy bilim bilan bir qatorda, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirib olgan holda kelmoqda. Albatta, bu oliyogoh jamoasi bilan hamkorlikda olib borilgan ishlari-mizning natijasidir.

Universitetda zamonaviy va shinam auditoriyalar, leksiya zallari, laboratoriya xonalari, kutubxonalar professor-o'qituvchi va talabalar ixtiyorida. Oliyogohda ayni paytda 40 ta o'quv va ilmiy laboratoriyalar faoliyat ko'rsatmoqda va kelgusida bu ko'rsatkichni 63 taga yetkazish ustida ish olib borilyapti. Albatta, bu imkoniyatlar ilmiy-tadqiqotlarning kengayishiga bevosita ijobiy ta'sir o'tkazmoqda. Ayni paytda, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bilan qiymati 18,7 milliard so'mlik 24 ta xo'jalik shartnomasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ilmiy-tadqiqot ishlarning ko'payishi, o'z navbatida, oliyogohda professor-o'qituvchilarning ilmiy ishlari bilan shug'ullanishga katta turtki bermoqda. Bugungi kunda universitet ilmiy salohiyati 60 foizdan oshganligini olib borilgan ishlarning samarasi, deb bilaman.

To'g'risini aytganda, bundan o'n yil ilgari mazkur darohda chet ellik talabalar tahsil oladi va o'zimizning professor-o'qituvchilari ingliz tilida ma'ruza o'qiydi, desa hech kim ishonmasdi. Bu jarayon bugun oddiy haqiqatga aylandi. Ayni paytda universitetda 180 nafarga yaqin xorijiy talabalar tahsil olmoqda. Hozirgi kunda universi-

tetda faoliyat ko'rsatayotgan 62 nafar professor-o'qituvchi xorijiy tillar sertifikatiga ega. Jami o'qitiladigan mutaxassislik fanlarining 23 foizi, jumladan, 79 ta fan ingliz tilida o'qitilmoqda. Bu ishlar o'z-o'zidan bo'lgani yo'q, albatta. Keyingi yillarda oliyogohda tizimli ravishda olib borilgan ishlarimiz o'zining ana shunday ijobiy natijalarini bermoqda.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida xalqaro ilmiy hamkorlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratilayotganligi tahsinga loyiqdir. Hozirda Ispaniyaning Madrid politexnika universiteti, Buyuk Britaniyaning Lids universiteti va AQShning Kolarado konchilik universiteti, Moskva shahridagi Milliy tadqiqotlar va texnologiyalar universiteti, Yaponiyaning Akita universiteti va boshqa nufuzli oliyogohlar bilan hamkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda. Oliyogohning keyingi o'n yillikda erishgan yutuqlari to'g'risida ko'p yozish mumkin.

Xalqimiz uchun Uchinchi Rennassans buyuk maqsadidir. Bu ezuq niyatini amalga oshirishda, yurtodoshlarimizning hayotidan rozi bo'lib yashashiga bevosita bog'liq bo'lgan va mamlakatimiz iqtisodiyotining yuksak darajada rivojlanishida ilm-fan va ishlab chiqarishning asosiy drayveri hisoblangan yangi zamon kadrlari muhim o'rin tutadi. Bir so'z bilan aytganda, kelgusida innovatsional salohiyatli kadrlarni tayyorlash, inson kapitalini rivojlantirish - Yangi O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlashning asosiy, hal qiluvchi bo'g'ini bo'lib qoladi.

Quvondiq SANAQULOV,
"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ
Boshqaruv raisi — Bosh direktori.

■ Jamiyat va yoshlar

Bu yil men uchun omadli keldi. Yoshlar kuni arafasida davlatimizning yuksak mukofoti - "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandim. Bu, e'tirof va rag'bat, mendek oddiy kasb egasining bunday yutug'i menga, barcha yaqinlarim va hamkasblaringa ham cheksiz mamnunlik bag'ishladi. Ayniqsa, tantanali marosimda davlatimiz rahbaridan mukofotni qabul qilib olganim hayotimning eng unutilmas voqeasi bo'ldi.

HAYOTIMDAGI UNUTILMAS Voqea

Ushbu tarixiy uchrashuvda muhtaram Yurtboshimiz aytgan so'zlari qalbimni beixtiyor to'lg'inlantirib yubordi: "Har kim ham bunday mashaqqatli kasbning egasi bo'lmaydi. Yanada o'z ustingda ko'p ishla, sen bilan yana ko'p uchrashamiz". Hayajonli lahzalarda davlatimiz rahbaridan bunday da'vatkor so'zlarni eshitish ulkan sharaf, yoshlarga bo'lgan ishonch va mas'uliyat demakdir. Bu rag'batni, albatta, kombinatda mehnat qilayotgan 12 ming nafardan ziyod yoshlarga bo'lgan katta ishonch, deb bilaman.

Bu xushxabardan hozirgacha. telefonim ko'ng'iroqlari, tabrik so'zlari bitilgan SMS xabarlari tinmaydi. Ular orasida kombinat rahbariyati vakillari, qadri hamkasblarim, mehribon o'qituvchilarim, aziz ustoz-murabbiylarim, qarindosh va sindoshlarim borligi menga cheksiz quvonch bag'ishladi.

Men Navoiy shahrida, oddiy oilada tug'ilib-o'sganman. Otam "Navoiyazot" korxonasida ishlaydi. Rahmatli onam "Metallurg" profaktoriyasida ishlaydi. Ular bizga butun mehrini berib, voyaga yetkazdi. Ming afsuski, onajonim mening bu xursandchilik kunlarimni ko'rolmay ketdi...

Bolaligimdan texnika qiziqdim. Shu bois, o'rta maktabni tugatib, hech ikkanlamay Navoiy konchilik kollejiga o'qishga bordim. Bu muassasada o'qib, kasb-hunar egalladim. Har gal kollejdan uyga qaytar paytlarda qurilish jarayonlari ketayotgan maydonlarda minorali kranlar, ularni boshqaradigan insonlarga doim havasim kelardi. Kasbga havas shu davrlarda uyg'ongan bo'lsa, ajabmas. Kollejni tugatgandan so'ng Navoiy mashinasozlik zavodiga yo'llanma berishdi. Mana sakkiz yildirki, ushbu korxonada ishlab kelayapman.

Shu o'rinda, men ishlayotgan jamoa haqida o'z fikrlarim bilan o'rtoqlashsam!

Zavodimiz Navoiy kon-metallurgiya kombinatining mahalliyashtirilgan va import o'rni bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonasi hisoblanadi. Ayni paytda bu yerda turli millat va elat vakillaridan iborat 3,3 ming nafar ishchi-xodim ishlaydi. Albatta, bunday baynalminal, o'z kasbining haqiqiy fidoiylaridan tarkib topgan jamoada, iqtisodiy salohiyati yuksalib borayotgan korxonada ishlash menga va bu yerda mehnat qilayotgan 700 nafardan ortiq yoshlarga katta faxrdir.

Kechagidek esimda. 2016-yilda ilk faoliyatimni mexanika-yig'uv sexida boshlaganman. Ustozlarim Sahad Jumayev, Ravshan Shodmonovlardan kasb sirlarini o'rgatdim. Chunki ishlab chiqarish, zamonaviy dastgohlarni boshqarish eng murakkab jarayon bo'lib, amaliyot o'tashni talab etadi. Faoliyatimning dastlabki besh yilida, ya'ni, 2016-2023-yillarda zavodda tokar bo'lib ishladim.

Jamoamizda xotin-qizlarning ulkan kranlarni ko'rqmasdan boshqarayotgani, shu kasb ortidan hurmat-e'tibor topgan Zulfiya Ahmedova, Dildora Tilabova va boshqa kran mashinistlariga havasim ortdi. Kran mashinisti bo'lishga qaror qildim. Kombinatda bu borada, ya'ni, o'zi qiziqqan ikkinchi mutaxassislikka o'qish uchun o'quv markazlari va kurslarida barcha sharoitlar yaratilgan.

Mening niyatimni eshitgan otam ishonqiramay:
- Qizim, bu kasb senga og'irlik qilmaydimi? Bu, erkaklarning ishi-ku!, degandi.
Shunda, dadillik bilan:

- Dadajon, ishonib eplab ketaman!

- Keyinchalik qiynalmasang bo'ldi...

Xalqimizda: "Intilganga tole yor", degan naql bor. Qayta tayyorlovdan so'ng, 2023-yilda ta'mirlash-mexanika sexida kran mashinisti bo'lib ish boshladim. O'n to'rt metrgacha bo'lgan balandlikda, ko'tarish quvvati o'n-yigirma tonnalik ulkan kranlarni boshqarish ko'proq tajriba, o'ziga bo'lgan katta ishonch talab etadi. Hech qancha vaqt o'tmadi. Intilishlar so'zini aytdi. Baland kranlarni boshqarib, rejalarini o'z vaqtida bajarib nazarga tushdim. Bu yutuqlar menga omad va baxt olib keldi.

Davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan ustozlarimga ergashib, orzularim olami ular yo'lini berdi. Mening davlat mukofotiga sazovor bo'lganimni eshitgan otajonimning qanchalik xursandchilik bo'lganini ta'rif etib berolmayman. Bir kelsa, quvonch ustiga quvonch kelaverar ekan. Davlat mukofotiga sazovor bo'lganim, poytaxtdan yorqin xotirlar bilan qaytgan kunim otamga Navoiy kon-metallurgiya kombinati rahbariyatining tashakkurnomasini topshirib ketishdi. Mana shunday farzandni tarbiyalab-voyaga yetkazganing uchun Sizga rahmat, deyilgan bu tashakkurnoma otajonim qalbini to'lg'inlantirib yubordi. Ko'zlariga sevinch yoshlari keldi. Albatta, har bir ota-ona uchun farzandlari kamoli, yutuqlarini ko'rishdan ortiq baxt bo'lmas kerak.

- Qizim, barchasini eplading!
Bu so'zlar men uchun qanchalik qadri



ekanini his qilib, entikib ketdim...

Bilasizmi, oilasidan xotirjam, ko'ngli to'q inson ishida, hayotida baraka bo'ladi. Turmush o'rtog'im "Navoiyazot"da usta bo'lib ishlaydi. Ikki nafar farzandim bor. Farangiz va Malika oilamiz baxti, bizning quvonchimiz.

Bugun kombinatimiz tomonidan xotin-qizlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Har xil qirrali sexlar va uchastkalarda ular erkaklar bilan bir safda mehnat qilmoqda. Korxonada ma'muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan munosib ish, yashash sharoitlari yaratib berilgani mana shunday yutuqlarga omil bo'lmoqda.

Hali ham taassurotlar, hayajonlar og'ushidaman. Buning uchun biz yoshlarni har jabhada qo'llab-quvvatlab kelayotgan davlatimiz, shu jumladan, kombinat rahbariyatiga o'z minnatdorligimni bildiraman. Bu ulkan ishonchni mehnatim, munosib hissam bilan, albatta, oqlayman. Ilohim, bunday baxt-omad, baxtiyorlik Yangi O'zbekistonda kamolga yetayotgan tengdoshlarimga, turli sohalarda o'zini ko'rsatayotgan sharaflari va mashaqqatli kasb egalari yor bo'lsin!

Sevinch SAIDOVA,
Navoiy mashinasozlik zavodi kran mashinisti, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi.

■ Sarhisob

KUN TARTIBIDA — JAMOA SHARTNOMASI BAJARILISHI

◀ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Gigant korxonada erishilayotgan 2023-yil misolida tahlil etadigan bo'lsak, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 67,5 trillion so'mga yetkazilib, 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati 103,8 foiz bo'lishi ta'minlandi.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida kombinat ulushi 6,3 foizni, respublika sanoat mahsuloti hajmidagi ulushi 14 foizni, budgetga 38,6 trillin so'm to'lov amalga oshirilib, kombinat ulushi respublika davlat budjeti daromadining 16,7 foizini tashkil etdi.

Joriy yilda ham kombinat jamoasi oldida katta marralar turibdi. O'zbekiston 2030 strategiyasida kon-metallurgiya sanoati korxonalariga oldiga yuqori daromadli mahsulot bo'lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltinni - 1,5 barobar, kumushni - 3 barobar, uranni - 3 barobar oshirish vazifasi qo'yilgan. Bu ishlarni to'g'ri tashkil etish uchun yaqinda 2024-2030-yillarda kombinatni barqaror rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Ushbu davrda keyingi olti yilda ishlab chiqarish hajmini 37 foizga oshirish vazifasi qo'yilgan. Kombinatlarning nafaqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini oshirib borish, balki ishchi-xodimlar, ularning oilasi, mehnat faxriylarini ijtimoiy himoya qilishga ham alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Shuningdek, ma'ruzada kombinatda Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bosh boshqarmasi tashkil etilib, boshqarma oldiga juda katta vazifalar qo'yilganligi, haftaning har juma kuni o'tadigan selektor yig'ilishi kun tartibida bu mavzu birinchi masala sifatida keng muhokama etib kelinayotganligi alohida ta'kidlandi.

Kasaba uyushmasi Kengashi raisi I.Raxmatov o'z ma'ruzasida kombinat ishchi-xodimlari, ularning oila a'zolari uchun sog'olmashtirish va dam olishlar namunali tashkil etib kelinayotganligini e'tirof etdi. Kengash ishchi-xizmatchilarning maishiy sharoitlarini yaxshilashda ma'muriyat bilan doimiy hamkorlikda bo'lib kelayapti. O'tgan yili ana shu maqsadlar uchun 4,7 milliard so'm mablag' sarflandi.

Shuningdek, kasaba uyushmasi ta'sarrufida tashkil etilgan "Birdamlik" fondi tomonidan 2023-yilda 634 nafar kam ta'minlangan, yolg'iz pensionerlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj ishchi-xodimlarga 1,3 milliard so'mdan ortiq miqdorda moddiy yordam ko'rsatildi. Kombinatlarning ishchi-xizmatchilari va pensionerlarini

respublikamizning Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarga sayohatlari muntazam uyushtirilmoqda. 2023-yilda kombinat va kasaba uyushma Kengashi mablag'lari hisobidan 1,5 milliard so'm mablag' hisobiga 4 ming nafardan ziyod ishchi-xizmatchilari va pensionerlar uchun turistik sayohatlar tashkil etildi.

Ma'lumki, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining Jamoa shartnomasida ish beruvchi va kasaba uyushma Kengashi o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari, eng muhimi ijtimoiy-himoyalarning mehnat qilishi, mehnatga haq to'lash, ularga ish, dam olish, salomatliklarini mustahkamlash uchun shart-sharoitlar yaratish va boshqa ijtimoiy himoya kafolatlari o'z aksini topgan. Shu boisdan, bu muhim hujjat ishchi-xizmatchilarning mehnat qilishi, mehnatga haq to'lash, ularga ish, dam olish, salomatliklarini mustahkamlash uchun shart-sharoitlar yaratish, xodimlarni ijtimoiy himoyalashning ishonchli kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Ma'ruzalarda Jamoa shartnomasida belgilangan vazifalarning bajarilish holati, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda olib borilgan ishlar, qo'lga kiritilgan natijalar, istiqboldagi rejalar haqida so'z yuritildi.

Shundan so'ng, Bosh direktorning xodimlar va ma'muriy masalalar bo'yicha o'rnbosari Q.Taparovning Jamoa shartnomasi majburiyatlarining 2023-yilda bajarilishini tekshirish, Jamoa shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi va ekologiya bo'yicha direktor A.Cherdantsevning mehnat muhofazasi bo'yicha kelishuvning 2023-yilda bajarilishi va mazkur hujjatning 2024-yil uchun qabul qilish to'g'risidagi axborotlari eshitildi.

Muzokaralarda Markaziy kon boshqarmasi Temir yo'l transporti boshqarmasi teplovch mashinisti M.Komilov, Shimoliy kon boshqarmasi Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika markaziy laboratoriyasi muhandisi Yu.Sabirova, 4-gidrometallurgiya zavodi bosh muhandisi N.Xaitovlar o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Konferensiyada delegatlar tomonidan kombinat ma'muriyati va kasaba uyushmasi Kengashining Jamoa shartnomasining 2023-yilda bajarilishi bo'yicha faoliyati qoniqarli, deb topildi hamda 2022-2024-yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilindi. **Azamat G'ULOMOV.**

■ "Navoiyuran" davlat korxonasida

KO'RSATKICHLAR ORTIG'I BILAN UDDALANDI

Joriy yilning 9-iyul kuni "Navoiyuran" davlat korxonasi Bosh direktori Djamal Fayzullayev raisligida korxonaning 2024-yil 1-yarim yillikdagi ishlab chiqarish faoliyati yakunlari hamda 2024-yil uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlarini so'zsiz bajarilishiga oid asosiy vazifalari muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Dastlab, korxonada Bosh direktori korxonaning 2024-yil 1-yarim yillikda ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati yakunlari hamda 2024-yil uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlarning bajarilishi borasidagi muhim vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida axborot berdi. Ta'kidlanganidek, uran ishlab chiqarish bo'yicha davlatimiz tomonidan belgilangan reja ortig'i bilan bajarilib, o'tgan yilga nisbatan 112 foizni tashkil etdi. Geologiya-qidiruv ishlari prognoz ko'rsatkichi, mahsuldor eritmalarini qayta ishlash va uran qazib olish hajmlari ham yuqori sur'atlarda bajarildi. Investitsiya dasturi loyihalari amalga oshirish borasidagi ishlar korxonada 207 foizga uddalanib, 48,5 million AQSH dollarlik kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi va 50 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi.

Hisobot davrida mahalliyashtirish dasturidagi 16 ta loyiha doirasida qariyb 33 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Shundan so'ng, korxonaning 2024-yil 1-yarim yillik uchun belgilangan ko'rsatkichlar natijalari hamda joriy yilda ish-

lab chiqarish dasturidagi ko'rsatkichlarni so'zsiz bajarilishini ta'minlash va barqaror rivojlanish uchun zamin yaratishga qaratilgan choralar to'g'risida hisobotlar tinglandi.

Yig'ilishda mutasaddirlar va tarkibiy bo'linma rahbarlariga Uranshlab chiqarish zavodidagi pechni qayta rekonstruksiya qilish bo'yicha zarur bo'ladigan ehtiyot va butlovchi foydalanishga topshirish belgilandi. Shuningdek, Xitoyning CNC kompaniyasi bilan imzolangan Strategik kelishuvga muvofiq qabul qilingan "Yo'l xaritalari" ijrosini o'z vaqtida ta'minlash, xalqaro kompaniyalar bilan geologik-qidiruv ishlari amalga oshirish bo'yicha qo'shma korxonani tashkil etish, geologiya-qidiruv ma'lumotlarini raqamlashtirish bo'yicha "qora slanes" turdagi "Jontuar", "Koscheka" hamda "Ma'danli" konlarining 3D modellari yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini onlayn kuzatib borish bo'yicha raqamli texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish bo'yicha bir qator topshiriqlar berildi.

"Navoiyuran" DK axborot xizmati.

Oramizdagi odamlar

MAMLAKAT OPANING
Baxti

“Bu ayolga qaysi chiroyli soʻz yarasharkin? Qay taʼrifim uning fidokorligini, jonkuyarligi-yu oddiylikni toʻliqligicha ifodalay olishga qodir? Qanday soʻz bilan uning qabida shu kunga qadar hech kim ilgʻamagan javohirlarining yorqin rangini chizsam ekan?”



bois, tuproq tilini biladigan, biroq, qoʻlida oliy maʼlumotli agronomlik diplomi yoʻq fermer opaning taqdir yoʻllari kombinatga tutashdi.

2010-yil 9-noyabrda uning mehnat daf-tarchasiga Navoiy kon-metallurgiya kompaniati Shimoliy kon boshqarmasi “Dovgiztov” koniga ishlab chiqarish xonalari farrosi etib tayinlangani toʻgʻrisidagi qisqa izoh va buyruq raqami yozib qoʻyildi. Mana shu yozuvlar uni va farzandlarini kutayotgan oydin kelajak kafolati ekan Yaratganga ayon, edi xolos...

Millati yoʻriqdan qatʼiy nazar, barcha onalar uchun mushtarak orzu bor, bu – jigarbandlarining tinchlik va farovonlik qurshovida unib-oʻsishi. Menimcha, opani choʻllarga yetaklagan kuch ham uning ona ekan, gʻamxoʻr va suyansang togʻ boʻluvchi kombinat qanoti ostida roʻzgʻor tebratish, bolalarining hayotida farovonlik bunyod qilish! Opa kam boʻlmadi. Farzandlari oilali, baxtdan, oʻzlaridan tinishdi. Bir etak nevaralari bagʻrida, ona uchun bundan ortiq baxt bormi? Uning mana shu baxti kombinat negizida shakllandi. Oʻgʻillari shu kunda, biri burgʻilash uskunasi mashinisti, biri mashinist yordamchisi. Qizi ham togʻ-kon sohasi boʻyicha oliygohda tahsil olmoqda, shu bilan birga, tadbirkorlik bilan ham shugʻullanadi.

Ish faoliyatim davomida tushunganim shuki, kombinat tizimidagi boʻlinmalarda mehnat qilish juda koʻpchilikning orzusi. Buning sabablari barchaga kundef ravshan: mehnat muhofazasi, barqaror ish haqi, qulay ish sharoitlari, ijtimoiy himoya, sogʻliqni saqlash, madaniy hordiq, umuman olganda, insonning oʻz hayotidan rozi boʻlib yashashni taʼminlovchi savobli sabablar har bir odamni ushbu gigant korxonaga ohanrabodek tortadi. “Dovgiztov” koni Maʼmuriy-xoʻjalik qismi zimmasidagi masʼuliyat zalvori konda-gi texnologik jarayonlar kabi ahamiyatli. Birgina, Mamlakat opaning kunlik ish faoliyati negizida kon hududida mehnat qilayotgan xodimlarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, yaddoq va toshloq boʻlgan bu yerlarda qurkib oʻsayotgan turli navdagi daraxtlarni, yashillikni, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlarini koʻrib, qariyb 1400 nafar ishchi-xodimni vaxta asosida kutib-kuzatish jarayonidagi mehnatning zalvorini chamalab hayratlanaman. Yotoqxonaga fayzli, ozoda, har bir xonada konditsioner, televizor mavjud, ovqatlanish xonalari mikrotoʻliqlini pech-

lar, muzlatgichlar, elektr gaz pitlasi bilan taʼminlangan. Xonalar, yotoq-krovatlariga toʻshalgan choyshablar toza, yuvinish xonalari chinnidek. Kunduzgi va tungi smenalarda ishlovchilarga xizmat koʻrsatadigan hammomga har biri bir tonnadan suv saqlaydigan ikki dona suv sigʻimi oʻrnatilgan. Bu yerdagi tartib va ozo-dalikni saqlash osonmas. Turlicha hayot tarzida yashagan xodimlar orasida mehnatning qadri tushunadigan olijanoblar ham yoxud birovning mehnatini toptaydiganlar ham topiladi. Koinotni kashf etishga qudrati yetgan odamzot, baʼzan, kichik koʻringan, biroq oʻta ogʻriqli boʻlgan bu kabi masalalar oldida, tarbiya asnosida oʻrtirilgan boʻshliqlar sabab hamon oʻz qolmoqda. Jamoasida ana shunday vaziyatlarda ham oʻz vazifasini sidqidandan ado etayotgan, tozalik posbonlari, xususan, Bayan Namuratova, Perdegul Kuldiyeva, Nazifa Nuraliyeva, Sohiba Asaboyeva, ishchi Husanjon Hamroyev kabi halol, mehnatsevar, shijoatli xodimlarning borligi Mamlakat opaga qanot bagʻishlaydi.

Opaning moʻjaz xonasi... Toʻrda qoʻl-gul Sohibaning yasagan gullari xuddi tabiiydek yashnab turibdi. Oldida kattagina kompyuter. Avvallari, u bino bilan bunisi orasida boʻzchining moksidedek qatnagan opaga endi zamona zayli bilan texnik qulayliklar ortib, kuzatuv dasturi oʻrnatilgan kompyuter berishgan. Kompyuterini bir koʻzdan kechirib olgan Mamlakat opa shkafda taxloqliq turgan bir nechta jurnallarini olib, varaqlab nimalarnidir yozadi. Hisob-kitobga noʻnoqliqim uchunmi u yozayotgan raqamlarga qarab koʻzim toliqadi. Charchogʻimni sezgan opa stoli ustida bankaga damlangan qizil choyi (karkade)dan uzatadi: Qand kasaliga duchor boʻlganini bilmabmanam, shu choy yaxshiykan”, deydi yozuvlaridan koʻz uzmay xotirjamgina. Mehnat jarayoniga shu qadar singib ketganidan, qizil choyiga koʻzi tushgandagina kasali esiga keladi. “Shukur, shu yerlarga rizqimizni sochib qoʻygan ekan, terib yurib-miz-da, yomonlik koʻrmasdik, kamlik koʻr-madik, kam boʻlmadik”, deydi baxtiyorlik bilan. Yuziga ajindan rasm solgan ogʻriqlar ham, doimiy hamroh boʻlib qolgan dardi ham uning shukurli qalbiga zarracha soya solmagani.

Yoʻlim oxirladi. Avtobus ohista toʻxtadi. Yoʻl boʻyi xayolimni band etgan qahramonimning toʻlaqonli taʼrifini xalq shoirining tafakkurimda tinmay aylangan shirʼidan topdim: baʼzilar tirnoqlar beza-gi uchun sarflaydigan vaqtni opa mehnatga, farzandlariga baxshida etgan, zeb va oroni yurakka yoʻnaltirgan!

Nilufar MUVDINOVA,
Shimoliy kon boshqarmasi mu-taxassisi.

“Agar inson oʻz kasbini yaxshi koʻrsa, har kuni ertalab ishxonasi tomon oshiqadi. Mana 20 yildan ortiq vaqt oʻtibdi, hayotim Qizilqumning injiq iqlim sharoitida insonlarga “obi-hayot” yetkazayotganlar, sahroning ekstremal sharoitida mashaqqat bilan mehnat qilayotgan konchi va metallurglar orasida kechmoqda. Ilk ish faoliyatimni boshlagan vaqtlarimda tajribali mutaxassislarga shogird tushib, ulardan sohaning sir-asrorlarini oʻrgangan boʻlsam, bugun oʻzimizning atrofimda yosh mutaxassis kadrlar talaygina. Ularga oʻz tajribalarimni oʻrtoqlashishdan, bilganlarimni oʻrgatishdan aslo charchamayman. Har bir kasbning oʻziga yarasha masʼuliyati bor. Men bu kasbni tanlaganimdan faxrlanaman.” – deydi Markaziy kon boshqarmasi Tashqi suv taʼminoti birlashgan energoxizmati bosh muhandisi Sanjar Doʻstmuradov faxr va gʻurur bilan.

MAQSADLI YASHASH
FORMULASI

Qizilqum bagʻirini yorib uzoq maso-fadan “Bessopan” sanoat maydonidagi ishlab chiqarish korxonalariga, Zarafshon va Uchquduq shaharlari aholisiga ichimlik hamda texnik suv yetkazib berayotgan ahil jamoaning vazifani oʻz vaqtida bajarilishida yuzlab soha fidoiylarining xizmati katta. – “Baʼzan ishimiz shu darajada kupayib, ketadiki, zimma-mizga yuklatilgan vazifalarning ijrosini oʻz vaqtida taʼminlash uchun kecha-yu kunduz ishlashga toʻgʻri keladi”, – deydi kulib qahramonimiz.

Qashqadaryo vohasining farzandi boʻlgan Sanjar Sattorovich Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutini tugatib, ilk ish faoliyatini Qashqadaryo viloyati qishloq va suv xoʻjaligi boshqarmasida muhandis vazifasida boshladi. Keyinchalik esa taqdir uning ham hayot yoʻllarini otasi kabi “Navoiy kon-metallurgiya kompaniati” AJdek gigant korxonaga bilan bogʻladi. 2001-yilda Markaziy kon boshqarmasi Tashqi suv taʼminoti birlashgan energoxizmati usta vazifasiga ishga qabul qilingan Sanjar aka keyinchalik sex texnolog, boshligʻi oʻrinbosari, energoxizmat bosh muhandisining texnologiya boʻyicha oʻrinbosari, ishlab chiqarish boʻyicha oʻrinbosari kabi lavozimlarda ishlab, oʻz tajribasini oʻrtirdi. 2015-yilda rahbariyat unga energoxizmat bosh muhandisligini ishonib topshirdi. Suv taʼminotida oʻsha davrlarning yetuk mutaxassislari hisoblangan Ayvar Salixov, Vasilij Smirnov va Yuriy Sherbamevlardan kasb siralarini oʻrgandi.

Faylasuflarimizdan biri “Siz sarflaydigan eng qimmatli narsa bu vaqt, vaqtni toʻgʻri sarflay bilish esa eng yaxshi ustoz tanlashga bogʻliq”, degan edi. Haqiqatdan hayotda koʻp narsa ustoz tanlashga bogʻliq. Sanjar Sattorovich ilk ustoz sifatida otasini tan oladi. Ota-

si Sattor Dustmurodov suv sohasi boʻyicha texnika fanlari nomzodi, dotsent. Bir necha yil Qarshi muhandislik-institutida prorektor lavozimida ishlab, shu soha boʻyicha yuzlab shogirdlar tayyorlagan. 1995-yilda Navoiy kon-metallurgiya kompaniati rahbariyati taklifi bilan Markaziy kon boshqarmasi Tashqi suv taʼminoti birlashgan energoxizmatida ish boshlagan. Ham amaliy, ham nazariy bilimga ega yetuk mutaxassis “Sa-rimoy” maydonidagi bosh suv olish inshootlari sexida boshligʻi oʻrinbosari, sex texnolog va sex boshligʻi lavozimlarida mehnat faoliyatini olib borgan.

Sanjar Doʻstmuradov otasi toʻgʻrisida faxrlanib gapirar ekan, yoshlik yillarini shunday xotirlaydi: “Oilada uch oʻgʻilmiz. Barchamiz ota kasbini tanlaganmiz. Bir korxonada faoliyat olib boramiz. Ukam Samar 5-nasos stansiyasida katta usta, kenja ukam Sarvar esa 4-nasos stansiyasida usta boʻlib ishlaydi. Dadam bizga doimo hayotda maqsadni kattaroq olishni uqtirardilar. Biz kamol topishimiz uchun komillikka erishmogʻimiz darkor. Buning uchun asosiy narsa bu — bilim derdilar. Uymizdagi kutubxonamizda turli janrdagi kitoblar koʻp boʻlardi. Shuning uchun boʻlsa kerak, kitob oʻqishni juda yaxshi koʻraman va hozirgi kunda ham boʻsh vaqtimda kitob mulolaa qilaman. Koʻpchilik kishidan kitob oʻqishga vaqt topmayotganini eshitib qolaman. Agar kitob oʻqish sizga zavq bagʻishlasa, hamisha vaqt topasiz, deb oʻylayman. Yoshligimizdan dadam bilan onam har bir ishni tartibli qilish, doim maqsad bilan yashashga oʻrgatganlari boʻlmas, bugun oʻzim ham uch nafar farzandimni shunday tarbiyalashga harakat qilayapman”.

Darhaqiqat, Sanjar aka turmush oʻrtogʻi Sayyora opa bilan qariyb chorak

asrdan buyon birga yashab, hayotning turli sinovlari-yu, roʻzgʻorning tashvishlariga birgalikda yechim topishmoqda. Shirin turmushlarida uch nafar farzandni tarbiyalab, yurtimiz farovonligi yoʻlida astoydil mehnat qiladigan mutaxassislari etib voyaga yetkazdilar. Oilaning katta farzandi Fotimaxon Qarshi davlat universitetini tugallab, ayni vaqtda Qarshi shahridagi 7-umumiy oʻrta taʼlim maktabida psixolog, oʻgʻli Husanjon esa Oʻzbekiston Milliy universitetini tamomlab, Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Raqamli rivojlanish departamentining Toponomika boʻlimida menejer boʻlib faoliyat olib bormoqda. Oilaning kenja vakili Suhrobjon ayni vaqtda Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi.

Sanjar aka bilan kechgan qizgʻin suhbatimiz yakunida: “Rahbar inson talabchan boʻladi, qattiqqoʻl boʻlishi ham kerakmi?”, - deya savol berdirdim. Uning javobi shunday boʻldi: - Ustozim Ayvar Salixovning: “Rahbar ishchi-xodimlarga talabchan boʻlishi bilan birga, ularga erkinlik ham berish kerak”, degan gaplari bor edi. Men mana shu oʻgʻitga amal qilgan holda, faoliyatimni olib boryapman. Ishchilarga erkinlik yaratilsa, ular oʻzlarining fikr va takliflarini bildira olsa, oʻsha korxonada vazifalar oʻz vaqtida bajariladi. Halol, toʻgʻrisoʻz va odil rahbar albatta, oʻz oldiga quygan maqsadlariga yetishadi. Men har bir hamkasbimni qoʻllab-quvvatlashga harakat qilaman. Buni esa taʼbir joiz boʻlsa, tartibli, intizomli va maqsadli yashash formulasi, degan boʻlardim.

A.IRISOVA.

NAZIRAXONNING SHIJOATI



Navoiy mashinasozlik zavodida tayyorlanayotgan oʻta yuqori aniqlikdagi sifatli metall konstruksiyalar, uskuna va jihozlar, turli rusumdagi dastgohlar, jihozlar, nostandart uskunalar, ehtiyot qismlar, nasos, armatura va konveyer roliklari kabi koʻplab mahsulotlarning metallari quymachilik sexida tayyorlanadi. Jamoa erishayotgan yutuqlarda fidoyi, mehnatsevar xotin-qizlarning oʻz oʻrni bor. Quymachilik sexida 20 yildan buyon ishlab kelayotgan Nazira Xudoyberdiyeva shulardan biri.

sarfini yozib borish, pult elektr jihozlarini taʼmirlash ishlarini bajaradi. Metall eritish jarayonida elektr eritish pechi pultchisi, poʻlat erituvchi va kimyoviy laboratoriya xodimlari faoliyati uzviy bogʻliqdir. Chunki poʻlat erituvchi tayyorlagan metallardan namunalar olinib kimyoviy tarkibini aniqlash uchun laboratoriyaga tahlilga taqdim qilinadi, uning tarkibidagi marganes, uglerod, xrom, molibden, kremniy kabi feroqotishmalar davlat standartlari boʻyicha meʼyorga keltiriladi.

Metal qorishmasi sifatli boʻlishi uchun elektr eritish pechi pultchisidan katta bilim, mahorat va diqqat talab qilinadi. Bu kasb mahoratini egallashda unga R.Nurmamatov, S.Salimgarayev, Y.Gʻaniyev, T.Irisova, N.Orziyev kabi ustozlari yaqindan koʻmak berishgan. Ayni vaqtda u bemaol turli rusumdagi yoyli poʻlat eritish pechlarida ishlay oladi.

Hozirgi kunda uning oʻzi ham ustoz boʻlib O.Olimova, M.Mamaniyozova, D.Temirova kabi, shogirdlarni tarbiyaladi. Ukasi Baxtiyorjon ham 2012-yildan buyon quymachilik sexining qoliplash uchastkasida ishlab kelmogʻda.

“Shuhrat” medali sovrindori Zafar Bobodoʻstov boshchiligidagi quymachilik sexining jamoasi bugungi kunda zavodning peshqadam ahil

jamoasi hisoblanadi. Qahramonimiz eritish boʻlimi boshligʻi J.Hamroyev, ishchilar B.Orziyeva, N.Muhammadiyeva, Sh.Niftullayev, S.Boboqulovlar haqida toʻliqlanib gapirib, shunday jamoada ishlayotganidan faxrlanishini taʼkidladi.

Ishchi-xodimlarning mehnatlari kombinat rahbariyati tomonidan munosib ragʻbatlantirib kelinayapti. N.Xudoyberdiyeva ham kasbidan baxt topayotgan zamondoshlarimizdan. Uzoq yillik fidokorona mehnatlari va soha rivojiga qoʻshgan hisssasi uchun Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami munosabati bilan Navoiy mashinasozlik zavodi maʼmuriyatining Faxriy yorligʻi bilan taqdirlandi.

Naziraxon nafaqat ishdan balki baxtdan ham tingan ayoldir. Ikki qiz va bir oʻgʻilining onasi. Turmush oʻrtogʻi Botir aka bilan farzandlarini halol mehnatlari ila voyaga yetkazdilar. Umr yoʻldoshi harbiy boʻlgani uchunmi har ishda tartib va intizom hukmron. Yashab turgan mahallasida ham eng namunali oilalaridan biri hisoblanarkan.

Navoiy mashinasozlik zavodida baxtu kamolini topgan Nazira Xudoyberdiyevaga omadlar tilab qolamiz.

A.AXMEDOVA.

Taʼlim

UNIVERSITET DOKTORANTLARI
MOSKVADA

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tayanch doktorantlari Moskvada stajirovka oʻtashmoqda.

Oliyogʻ axborot xizmati tarqatgan maʼlumotga qaraganda, “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasida tayanch doktorantlari X.Ashurov, M.Saibov, N.Hamroyev va A.Mamadiyarovlar Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan eʼlon qilingan yosh olimlarni ilmiy stajirovkalarga yuborish tanlovida gʻoliblikni qoʻliga kiritib, Rossiyaning federal davlat avtanom oliy taʼlim muassasasi “Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti-da (MISIS) stajirovka oʻtashmoqda.

Yosh olimlar mashinasozlik sanoatida qoʻllaniladigan materiallarning mexanik va ekspluatatsion xossalari yaxshilashning zamonaviy usullari yuzasidan tadqiqotlar olib borishmoqda. Stajirovka davomida olingan natijalarni olimlar oʻzlarining ilmiy ishlarida foydalanishni maqsad qilishgan. Stajirovka IIm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi tomonidan moliyalashtirildi.

OLIMLAR FAOLIYATI
Turkiyada nashr etilgan kitobda

Turkiyaning Alanya hokimligi huzuridagi “Baygench” nashriyoti va “Shine” Qizlar Akademiyasi tomonidan Oʻzbekistonning turli yoʻnalishlarda faoliyat koʻrsatayotgan iqtidorli va faol ayol-qizlari ijodiy ishlari jamlangan “Oʻzbekistonʼin Lider Kadrlar?” (“Oʻzbekistonlik lider ayollar”) kitobi nashr etildi.

Alanya shahrida kitobning taqdimot marosimi boʻlib oʻtdi va bu haqida Turkiya OAVda eʼlon qilindi. Taqdimotda bir guruh oʻzbek-turk shoir-yozuvchilari, professor-oʻqituvchilar va fan doktorlari, shuningdek, toʻplamda oʻz ijod namunasini ishtirok etgan mualliflar qatnashdi.

Ushbu kitobdan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining ikki nafar tayanch doktoranturada tahsil olayotgan yosh tadqiqotchi-olimlari Gulxur Haydarova va Kamola Xudoyberdiyevalar faoliyati ham oʻrin olgan.

O.MUSTAFOYEV.



BOLALARNING SEVIMLI OROMGOHI

Yoz bolalarning sevimli faslidir. Uch oy ta'til maroqli hordiq chiqarish uchun yaxshi imkoniyatdir. Bolajonlar yozgi dam olish vaqtida oromgohlarda hordiq chiqaradilar. U yerda do'stlar orttirishib, bilimlarini mustahkamlab, sport bilan shug'ullanishadi. Zarafshon shahridagi "Zarafshon" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida ham ko'plab bolajonlar maroqli dam olishmoqda. Oromgohda yildan-yilga o'zgarishlar katta.

Oromgohimiz 2017-yilda NKMK tassarrufidagi oromgohlar orasida "Eng yaxshi oromgoh" nominatsiyasi bo'yicha 1-o'rinni egallagan bo'lsak, 2019-yilda 2-o'rinni qo'lga kiritganmiz. Bundan tashqari 2021-va 2022-yilda oromgohimiz "Eng namunal bolalar sog'lomlashtirish oromgohi" deb e'tirof etilgan. O'tgan 2023 yilda Respublikada ilk marotaba oromgohlar o'rtasida departamentning Navoiy viloyat boshqarmasi tomonidan 5 ta yo'nalish bo'yicha "Departament kubogi" videolavhalar tanlovi o'tkazildi. Maskur tanlovda "Eng yaxshi tashabbuskor oromgoh rahbari" nominatsiyasi bo'yicha faxrli 1-o'rinni egalladik. Bu yutuqlar nafaqat mening balki men bilan yulka-yelka faoliyat olib borayotgan barcha ishchi-xodimlarning va rahbariyatimizning yutug'i deb bilaman. Uylaymanki, joriy yilda ham yuqori natijalarga erishamiz, - deydi "Zarafshon" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi direktori Gulzoda Xolmatova.

ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib, har tomonlama ma'naviy kamol topishlarida yordam beradi. Bu borada albatta, oromgoh mutasaddilari va tarbiyachilarning o'rni beqiyosdir. "Zarafshon" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi 4 mavsumdan iborat bo'lib, har mavsumda 540 nafardan 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan, kombinat tassarrufidagi korxonatashkilotlarda faoliyat olib borayotgan ishchi-xodimlarning farzandlari, jumladan Zarafshon, Uchquduq, Konimex, Tomdi, Zafarobod va Nurota tumanlaridan jami 2160 nafar bolajonlar kelib dam oladilar. Oromgoh hududida bolalarning dam olishlari uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Oromgohga yuqori pedagogik mahorati orqali yosh avlod kamolotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan 74 nafar pedagog xodim jalb etilgan. Ularning 41 nafarini tarbiyachi, 20 nafarini yetakchi, 4 nafarini to'garak rahbari, bosh tarbiyachilar, bosh yetakchi, kutubxonachi, suzish bo'yicha yo'riqchilar, sport murabbiylari, musiqa rahbarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, ajratilgan tibbiyot xodimlari bolalarning salomatligi haqida qayg'ursa, ichki ishlar



organi xodimlari esa ularni himoya qiladi.

Tong sahardan oromgohda ertalabki badantariya mashqlarini boshlaymiz deydi ikki yildan buyon yozgi ta'tilini shu oromgohda o'tkazayotgan qizaloq Bahora Zokirova. - Oshxonamizda ertalab turli bolalar uchun shirin kulcha va bo'tqalar tayyorlanadi. Bundan tashqari tabiiy vitamin va darmondorilarga boy tansiq taomlar biz kichiklarni ishtahasini ochadi. Mohir oshpaz opalarimiz bizlar uchun mazali turli yeguliklarni tayyorlash va das-turxonga tortishda sanitariya-epidemiologiya talablariga qat'iy e'tibor qaratishadi. Oromgohimizda har kuni "Kasblar bilan hamnafas", "Sport salomatlik kuni", "Yosh kitobxon", "Ingliz tili kuni", "Sevimli qahramonim yoxud etraklar kuni", "Yosh rejissor", "Turli millatlarning milliy raqs-lari", "Bizning buyuk ajdodlarimiz", "Vatanimga xizmat qilaman" kabi turli mavzulardagi tadbirlar tashkil etiladi.

Aziza IRISOVA.

JAZO MUQARRARLIGI TA'MINLANDI

Fuqaro A.T. o'tgan yilning 2 noyabr kuni yarim tunda J.H. va boshqa to'qqiz nafar shaxslar bilan jinoiy ishga qo'l urdi. Jinoiy guruh qing'ir yo'l bilan osongina daromad topishni ko'zlaydi. G'arazli maqsad bilan "Zarmitan" koni yer osti shaxtasining +840 sathiga g'ayriqonuniy ravishda kiradi. U yerdan tarkibida umumiy qiymati 14 million 124 ming 453 so'mlik oltin va kumush moddasi bo'lgan 1297 kilogramm og'irlikdagi ma'danli toshlarni 25 dona polietilen qoplanga joylab, olib ketmoqchi bo'lgan paytda JKB Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi nazoratchilari tomonidan ushlandi hamda ulardan 1297 kilogramm og'irlikdagi ma'danli toshlar ashyoviy dalil sifatida hujjatlashtirib olindi.

NKMK Ichki ishlar bo'limi tergov bo'limasi tomonidan A.T. va uning sheriklariga nisbatan mazkur jinoiy ish yuzasidan dastlabgi tergov harakatlari olib borilib, ayblov xulosasi bilan sudga yuborildi. Jinoiy ishlari bo'yicha Qo'shrabot tuman sudining hukmi bilan A.T. va uning to'qqiz nafar jinoiy sheriklari O'zbekiston Respublikasi Jinoiy kodeksining 25,169-moddasi 2-qismi "v", "g" bandlari bilan aybli deb topilib, ularning barchasiga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi.

Baxriddin AXMEDOV,
Navoiy ixtisoslashtirilgan prokurori o'rinbosari.

MEHNAT MUHOFAZASI QOIDALARIGA RIOYA QILISH KERAK

Ma'lumki, ishlab chiqarish korxonalarida xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini mavjud. Turli ko'ngilsiz hodisalar ro'y berishining oldini olish uchun esa ana shu qoida va tartiblariga qat'iy rioya qilish talab etiladi. Afsuski, ba'zan sanoat-korxonalar mutasaddi rahbarlari yoki mutaxassislarining beparvoligi, xavfsizlik texnikasi qoidalariga yetarli e'tibor bermasligi oqibatida insonlarning tan jarohati olishi bilan bog'liq ko'ngilsiz voqealar sodir etilyapti.

R.E. 6-sonli gidrometallurgiya zavodi sianlash va sorbsiyalash bo'linmasi mexanigi lavozimida ishlagan. U "Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida"gi namunaviy Nizomning 150, 153-bandi talablariga amal qilishi, bo'linma ishchilarining ishini muvofiqlashtirishi, naryad-topshiriq berishi va ularning bajarilishi, ishchilarning O'zbekiston Respublikasi mehnat qonun-chilagi va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilishlari, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha me'yorlar hamda ichki mehnat tartib-qoidalarini bajarishlarini nazorat qilishi lozim edi. R.E. ana shu mas'uliyatli unutilib, 2024 yilning 18 yanvar kuni 6-sonli gidrometallurgiya zavodi sianlash va sorbsiyalash bo'linmasida ta'mirllovchi-chilangar

shogirdi lavozimida ishlayotgan F.M. ni o'tish xavfi yuqori bo'lgan xizmat ko'rsatish maydonida harakatlanishiga yo'l qo'yib, xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlamasdan unga asbob-uskunalar saqlanadigan xonadan o'zi uchun kerakli (strop) temir arqon ni keltirib berish haqida og'zaki topshiriq beradi. F.M. sorbsiyalash idishlariga xizmat ko'rsatish maydonchasida sorbsiya chanining sizib chiqish quvurini almashtirish bo'yicha ta'mirlash ishlari amalga oshirilayotgan ish maydonidan temir arqonni olib qaytaryotganida shu maydondagi ochiq teshikka tushib ketib, o'rtacha og'irlikdagi tan jarohati oladi.

Jinoiy ishlari bo'yicha Nurota tuman sudining hukmiga ko'ra R.E.ga O'zbekiston Respublikasi JKning 257-moddasi 1-qismi bilan muayyan huquqdan, ya'ni korxonaga, muassasa va tashkilotlarda xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi va mehnatni muhofaza qilishning qoidalariga rioya etilishi uchun mas'ul lavozimlarda ishlash huquqidan mahrum qilinib, ish haqining 20 foizi miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda ikki yil axloq tuzatish jazosi tayinlandi.

Boburjon XUDAYBERDIYEV,
Nurota tuman prokurori yordamchisi.

"101" xabar qiladi

DOIMO HUSHYOR BO'LAYLIK!

Respublikamizda 2024-yilning 1-iyulidan 1-avgust kuniga qadar "Yong'in xavfsizligi oyiligi" e'lon qilinganligi munosabati bilan Janubiy kon boshqarmasi va Navoiy sanoat maydoni obyektleri yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan joylarda turli tadbirlar olib borilmoqda.

Ushbu tadbirlardan ko'zlangan maqsad aholi o'rtasida yong'in xavfsizligi qoidalarini tushuntirish, ularga rioya etish, yong'inning hamda is gazidan zaharlarning oldini olishga e'tibor qaratishdan iborat. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, olov bilan bog'liq ko'ngilsiz holatlarga qarshi kurashish faqat yong'in o'chiruvchilarning emas, balki har bir fuqaroning burchidir. "O'z yingini o'zing asra" shiori har bir oila, har bir korxonaga va muassasa jamoasiga dahildir. Aholiga yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, chunonchi, ochiq alangadan foydalanayotganda ehtiyotkorlik choralarini ko'rish, elektr va gaz asboblari ni doimo so'z holda tutish, qo'l'bola tayyorlangan asboblardan foydalanmaslik, belgilangan joylarda chekish zarurligini eslatib o'tamiz. Ushbu qoidalarga doimo amal qilinsa, yillab to'plangan mol-mulkni,

uy-joyini, qolaversa har bir fuqaro o'zining va yaqin kishilarining hayotini yong'in dan asrab qolgan bo'ladi. Bolalarimizga to'g'ri tarbiya berib, nasihatimiz, hayot uchun zarur saboqlarimizni ayamasligimiz kerak. Zero hech kim farzandining nogiron bo'lib qolishini istamaydi. Yong'in esa bir necha soniyada insonlarni mol-mulkidan, yaqinlaridan ajratib yuboradigan o'fdatir. Sodir bo'layotgan yong'inlar ko'plab insonlarning hayotlariga zomin bo'lmoqda. Bunday hollar beparvoligimiz, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etmasligimiz oqibatida ro'y berishi mumkin. Shunday ko'ngilsizliklarning oldini olish maqsadida barchani hushyorlikka, oqohlikka chaqiramiz.

Hayotbek XOLIQULOV,
JKB va NSM OYOXTE bo'limi inspektori kapitan.

Культура

«Аллегро» — ПОБЕДИТЕЛЬ МЕЖДУНАРОДНОГО КОНКУРСА

Дворец культуры «Олтин водий» города Зарафшан — это место, где с 1972 года зарождаются юные таланты. Это не просто здание, где проводятся различные культурно-массовые мероприятия, тематические вечера и праздничные концерты, это настоящий ансамбль творчества, где каждый инструмент - будь то музыка, танец или живопись - играет свою важную роль в формировании культурной жизни города.

Концертные программы, организуемые в ДК «Олтин водий», становятся настоящими событиями для жителей города. Здесь можно услышать музыку разных стилей и направлений, насладиться танцевальными выступлениями и увидеть яркие художественные выставки. Благодаря ДК город наполняется творческой энергией и вдохновением. Здесь формируются новые таланты, развивается культурная жизнь и достигаются значимые успехи в искусстве. Дворец культуры становится местом, где каждый может найти свое место и проявить свои таланты.

ДК «Олтин водий» является одним из центров культурной жизни города Зарафшан, и на его творческом небосводе ярко горит звезда эстрадно-инструментального ансамбля «Аллегро». Коллектив был создан в 2011 году под руководством Айды Мостовой. Особое место в этом ансамбле занимают инструментальные барабаны, которые не только создают ритм и мелодию, но и передают энергию и страсть к музыке.

Ансамбль «Аллегро» — это коллектив талантливых молодых музыкантов, которые уже успели доказать свой потенциал на сцене. В его состав входят дети и юноши, которые начали свои музыкальные шаги в детстве и сегодня уже являются опытными исполнителями. В настоящее время участниками коллектива является 26 человек различного возраста. Это ребята из дошкольных учреждений, школы, студенты, работники Центрального рудоуправления и Регионального управления «Зарафшан» ГУ «Фонд НГМК».

С 2011 по 2012 годы ребята играли на эстрадных инструментах, в 2013 году в составе ансамбля появились



вокалисты, это позволило разнообразить исполнительский репертуар. Коллектив выступал с сольными номерами в Доме мипосердия «Шодлик», в РКЦ «Россиячка», а также в досуговом клубе «Надежда» для людей с ограниченными возможностями.

Ансамбль «Аллегро» регулярно участвует в различных конкурсах и мероприятиях, где они демонстрируют свой талант и мастерство. Каждое выступление ансамбля — это настоящее зрелище, полное энергии и счастья. Мы гордимся всеми победами в конкурсах регионального и республиканского масштабов, работа коллектива была признана лучшей и не раз отмечена высокими наградами. География их выступлений широка. Наши ребята участвовали в таких конкурсах, как «Кызылдук санъат гунчалари» (г.Навои), «Кызылдук овози» (г.Навои), «Музыка жизни», «Фестиваль талантов» (г.Ташкент), «Ритмы Евразии» (г.Бухара). В этом году с 4 по 7 мая коллектив принимал участие в концертной программе «Кызылдук жавохири-2024» в г.Ташкенте в концертном зале Дворца профсоюзов Узбекистана.

И снова очередная заслуженная победа в копилку

ансамбля «Аллегро». С 13 по 16 июня 2024 года коллектив принимал участие в VI международном многожанровом конкурсе детского и молодежного творчества стран Европы и Азии «Ритмы Евразии» в г. Бухара и занял I место в номинации этно-народное исполнение, а I место в номинации соло на малом барабане заняла Милана Гиматдинова.

Благодаря поддержке руководства НГМК, СП НГМК и ГУ «Фонд НГМК» в ДК «Олтин водий» создаются условия для реализации талантов и достижения успехов в различных областях искусства и культуры. Яркий пример этому ансамбль «Аллегро» — это не только коллектив, но и группа друзей, которые вместе создают музыку и радуют публику.

Таким образом, поддержка и развитие талантов молодежи являются важным звеном в культурном развитии общества. Поддерживая молодежь в их творческих начинаниях, мы способствуем развитию культуры и искусства, делая мир ярче и насыщеннее.

Анна ЦВЕТКОВА,
сотрудник ДК «Олтин водий».

